


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI	10
I. R. Berdikulova	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI	14
Onorboev Sh.M.	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
Rahimova Volida Karim qizi	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
Nigmatjonov Sardor Abdumannovich	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
Davletov Ikrom Raximberganovich	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
Салихова Алина Муратовна	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI	73
Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI	83
Sodiqova Nigora	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
Muminov Bekzod Polvonovich	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА	95
Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY	110
Damirjon Nurmatovich Soliyev	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
Джумаев Аскар Хайдарович	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich	



SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILIIY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi tizimini transformatsiya qilishning strategik yo'nalishlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalalari tahlil qilingan. Maqolada soliq nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan mualliflik takliflari hamda ilmiy asoslangan yechimlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'murchiligi, strategik rivojlanish, raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot, soliq nazorati, xavflarni tahlil qilish, soliq islohotlari.

Аннотация. В данной статье научно исследованы стратегические направления трансформации системы налогового администрирования в Республике Узбекистан. В ходе исследования проанализированы вопросы повышения качества обслуживания налогоплательщиков, сокращения доли теневой экономики, а также широкого внедрения цифровых технологий. В статье выдвинуты авторские предложения и научно обоснованные решения, направленные на автоматизацию процессов налогового контроля, снижение влияния человеческого фактора и повышение эффективности налогового администрирования.

Ключевые слова: налоговое администрирование, стратегическое развитие, цифровизация, теневая экономика, налоговый контроль, анализ рисков, налоговые реформы.

Abstract. This article scientifically examines the strategic directions for transforming the tax administration system in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes issues related to improving the quality of taxpayer services, reducing the share of the shadow economy, and widely introducing digital technologies. The article presents the author's proposals and scientifically grounded solutions aimed at automating tax control processes, reducing the influence of the human factor, and improving the efficiency of tax administration.

Keywords: tax administration, strategic development, digitalization, shadow economy, tax control, risk analysis, tax reforms.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash hamda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasining Yangi taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida soliq yukini maqbullashtirish, soliq ma'murchiligi soddalashtirish va soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Hozirgi kunda soliq organlari faoliyatini "soliqchi — ko'makchi" tamoyili asosida takomillashtirish, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish hamda soliq tizimini izchil raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq nazoratida inson omili ta'sirini kamaytirish va axborot almashinuvi tizimini yanada rivojlantirish sohani strategik jihatdan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy tahlil qilish hamda xalqaro tajriba asosida soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G'arb iqtisodchilari S. Fisher, R. Dornbush va R. Shmalenzilarning [1] fikricha, soliq siyosati mustaqil

tushuncha sifatida emas, balki fiskal siyosat tarkibida talqin etiladi. Ularning yondashuviga ko'ra, fiskal siyosat davlatning daromadlari va xarajatlari bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoni bo'lib, soliq siyosati ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. A. V. Aronov va V. A. Kashin [2] esa maksimal soliq siyosatini soliq siyosatining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, soliqlar sonini ko'paytirish, soliq stavkalarini oshirish hamda soliq imtiyozlarini qisqartirish soliq siyosatining muayyan strategik maqsadlari sifatida qaralishi mumkin. I. A. Mayburov [3] soliq islohotini soliq tizimini tubdan o'zgartirish va uni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish jarayoni sifatida ta'riflaydi. N. M. Dementeva [4] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining muhim ifodasi sifatida baholab, uning mustaqil ahamiyatga ega ekanligini hamda soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari davlat iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritilishi va soliq tizimini qanday shakllantirish zarurligini belgilab beradi.

M. V. Karp [5] soliq siyosatini davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko'rib, uni soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi hamda soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalar bilan bog'laydi. O. Sitnikova [6] konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhini shakllantirishda aktivlarni tan olish yoki ularni maxsus qayta baholash, guruhga kirishdan oldin korxonalar zararlarini o'tkazish tartibini ishlab chiqish hamda konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yagona iqtisodiy subyekt sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Yu. Darkina [7] yirik soliq to'lovchilarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ularga katta pul oqimi, keng ko'lamlı hujjatlar aylanmasi, turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyalashuvi, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalanish imkoniyati hamda mamlakat ichida va xorijda turli firmalar bilan hamkorlik qilish kabi belgilar xos ekanligini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi metodologiyasining huquqiy, tashkiliy va raqamli asoslarini baholashga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, statistik guruhlash, dinamik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Soliq ma'murchiligining amaldagi holati budjet daromadlari, yirik soliq to'lovchilar tushumlari hamda raqamli xizmatlar samaradorligi ko'rsatkichlari asosida o'rganildi. Shuningdek, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, tashkiliy boshqaruv mexanizmlari va axborot tizimlari integratsiyasi tahlil qilindi. Tadqiqotda Soliq qo'mitasi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosiy axborot manbasi sifatida foydalanildi. Olingan natijalar asosida soliq ma'murchiligini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq ma'murchiligi soliqlarni undirish, ularni to'g'ri hisob-kitob qilish hamda davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlashga qaratilgan tizimli tashkiliy, huquqiy va amaliy chora-tadbirlar majmuasidir. O'zbekistonda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Soliq ma'murchiligining amaldagi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada bir qator ilg'or islohotlar amalga oshirilgan. Xususan, davlat soliq xizmati organlari qayta tashkil etilgan, soliqlar bo'yicha hisobotlar elektron shaklga o'tkazilgan, soliq to'lovchilarning Yagona identifikatsiya raqami (YalD) joriy etilgan, "E-soliq" axborot tizimi faollashtirilgan hamda xizmatlar markazlashtirilgan. Bundan tashqari, soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular bilan ochiq muloqotni ta'minlash, soliq solish obyektlarini aniqlash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaygan. Mazkur islohotlar soliq tizimining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu sababli soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishda huquqiy ta'riflarni aniqlashtirish, normativ-huquqiy asoslarni standartlashtirish, axborot almashinuvini to'liq raqamlashtirish va soliq organlari faoliyatida profilaktik yondashuvlarni kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tashkiliy baza bilan bog'liq jihatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligi metodologiyasida tashkiliy omillar muhim o'rinni tutadi. O'zbekistonda soliq organlari faoliyati qayta tashkil etilgan bo'lsa-da, ayrim hududiy tuzilmalarda funksional vazifalarni yanada aniqlashtirish va markazlashtirish darajasini kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish ham soliq ma'murchiligi samaradorligini ta'minlovchi muhim tashkiliy omillardan biri hisoblanadi. Xodimlarning kasbiy malakasi va zamonaviy yondashuvlarga moslashuv darajasini barcha hududlarda izchil oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda soliq organlari xodimlarini doimiy ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, soliq organlari bilan



solliq to'lovchilar o'rtasida ishonchli, ochiq va shaffof munosabatlarni yanada mustahkamlash solliq intizomini oshirish, korrupsion xavflarning oldini olish hamda solliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Raqamli baza bilan bog'liq jihatlar tahlili esa solliq ma'murchiligida raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. "E-Solliq" tizimi, QR-kodli cheklar va onlayn nazorat-kassa mashinalarining joriy etilishi ushbu sohada muhim amaliy natijalarga erishilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, davlat idoralari o'rtasida axborot almashinuvini yanada avtomatlashtirish, mulkka oid ma'lumotlar, fuqarolar reestri va bank ma'lumotlarini solliq organlariga real vaqt rejimida taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish solliq nazoratining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalish yashirin iqtisodiyotni aniqlash, solliq bazasini kengaytirish va ma'murchilik jarayonlarida inson omili ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, solliq to'lovchilar uchun yaratilgan elektron xizmatlarni yanada qulaylashtirish, mobil ilovalarni rivojlantirish va xizmat interfeyslarini oddiy foydalanuvchilar uchun sodda hamda tushunarli shaklga keltirish zarur. Solliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonida yuridik shaxs sifatida tadbirkorlik faoliyatini yuritish istagidagi shaxslar dastlab davlat xizmatlari markaziga onlayn yoki bevosita murojaat qilib, davlat ro'yxatidan o'tadilar. Ro'yxatdan o'tish jarayonida ular o'z ixtiyoriga ko'ra QQS yoki AOS to'lovchisi sifatida solliq to'lash rejimini tanlaydilar. Shundan so'ng ular tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bir qatorda solliq hisobotlarini ham belgilangan tartibda taqdim etib boradilar. Avvallari solliq bazasi hisobi har bir solliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda yuritilib, hisobotlar alohida taqdim etilgan bo'lsa, bugungi kunda "solliqchi — tadbirkorga ko'makchi" tamoyili asosida solliq to'lovchilarga qulaylik yaratish maqsadida ayrim solliq hisobotlari avtomatik tarzda shakllantirilmoqda. Jumladan, kadastr organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i, onlayn nazorat-kassa mashinalari hamda elektron hisobvaraqa-faktura ma'lumotlari asosida AOS va QQS bo'yicha hisobotlar avtomatik tarzda shakllantirib berilmoqda. Bunda solliq to'lovchi shaxsiy kabinetiga kirib, solliq organlari tomonidan shakllantirilgan hisobotlarni ko'zdan kechiradi hamda e'tirozlari mavjud bo'lmagan taqdirda ularni tasdiqlash orqali solliq hisobotlarini taqdim etadi. E'tiroz mavjud bo'lgan hollarda esa tegishli tuzatishlar kiritish va hisobotlarni qayta taqdim etish imkoniyati yaratilgan. Resurs solliqlari, ya'ni mol-mulk, yer va suv solliqlari bo'yicha hisobotlar yilda bir marta, foyda solig'i bo'yicha hisobotlar har chorakda, qolgan solliq turlari bo'yicha esa hisobotlar har oyda taqdim etiladi.

Shuningdek, umumbelgilangan tartibda QQS to'lovchilariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida hududiy solliq boshqarmalarida "Solliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish" bo'limlari tashkil etilib, har bir tarmoq bo'yicha 200 mingga yaqin qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi 14 ta sohaga ajratilgan holda ularga xizmat ko'rsatish uchun 902 nafar mas'ul xodim birlashtirilgan. Ushbu xodimlarning asosiy vazifasi solliq to'lovchilarga solliq majburiyatlarini bajarishda, jumladan, solliqlarni to'g'ri hisoblash, ularni belgilangan muddatlarda to'lash, solliq solish obyektlarini o'z vaqtida hisobga olish hamda jarima choralarining oldini olish bo'yicha amaliy ko'mak ko'rsatishdan iborat. Solliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda ularning solliq to'lovchilar bilan bevosita ishlashiga ko'proq vaqt ajratishini ta'minlash maqsadida "DSB ma'murchiligi" axborot tizimi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Mazkur tizim orqali solliq to'lovchilar tomonidan solliq ma'murchiligini ta'minlash jarayonida 42 ta yo'nalish bo'yicha, jumladan, hisobotlarning taqdim etilishi, vakolatli organlar ma'lumotlari va solliq hisobotlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar, kommunal xizmatlardan foydalangan holda tovar aylanmasini "nol" ko'rsatkich bilan taqdim etish kabi holatlar avtomatik tarzda tahlil qilinadi hamda solliq inspektorlari tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ro'yxati shakllantiriladi. Bugungi kunda solliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetida ularga birlashtirilgan solliq inspektori to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, korxonalar faoliyatiga oid aniqlangan kamchiliklar aks ettirilgan bo'lib, ularni mustaqil ravishda ko'rish va bartaraf etish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, faoliyat turiga tegishli sohalar bo'yicha yangiliklardan xabardor qilib borish maqsadida Telegram guruhlarini tashkil etilib, solliq to'lovchilar zarur ma'lumotlar bilan ta'minlanmoqda. Solliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida ushbu bo'limlarga solliq xizmati organlarining tajribali va namunali xodimlari jalb etilgan, ularning ish samaradorligini 26 ta mezon asosida baholash bo'yicha KPI tizimi joriy qilingan hamda yuqori natijalarga erishgan xodimlar muntazam rag'batlantirib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son Qarori¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son Qaroriga² asosan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilgan. Mazkur reyting tizimida tadbirkorlik subyektlarini baholash bo'yicha 10 ta asosiy mezon, qo'shimcha ball beruvchi 4 ta mezon va ballni kamaytiruvchi 9 ta mezon, jami 23 ta mezon belgilangan. Yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlarida solliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi, QQS summasi o'rni tekshiruvlarsiz 1 kunda qaytariladi, ular "Faol tadbirkor" ko'krak nishoniga tavsiya etiladi, solliqlar bo'yicha mavjud ortiqcha to'lov summalari 3 kunda qaytariladi hamda

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.01.2024 yildagi PQ-39-son <https://lex.uz/docs/-6773342>.

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.01.2024 yildagi 55-son <https://lex.uz/docs/-6785751>.



tovarlarni import qilish va realizatsiya qilish jarayonida to'lanadigan QQS summalarini o'zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Ushbu tizimning amaliyotga joriy etilishi soliq to'lovchilarning barqarorlik reytingi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishda respublika miqyosida, yirik soliq to'lovchilar, hududiy soliq boshqarmalari hamda tuman va shaharlar kesimida amalga oshirilgan ishlar natijadorligini tizimli tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv soliq tushumlari dinamikasini, soliq to'lovchilarning ro'yxatdan o'tgan joyi bo'yicha faoliyatini hamda soliq ma'murchiligi samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, 1-jadval ma'lumotlari soliq tushumlarini hududlar va soliq to'lovchilarning ro'yxatdan o'tgan joyi bo'yicha tahlil qilishga xizmat qiladi.

1-jadval

Soliq ma'murchiligining amaldagi holati natijadorligi yuzasidan Respublika bo'yicha 2020-2025-yillarda budget daromadlariga tushumlar tahlili³ (mlrd.so'm)

№	Yillar	Jami	I yarim yillik		II yarim yillik	
			summa	ulush, %	summa	ulush,%
1	2020-yil	103 567	45 853	44,3	57 714	55,7
2	2021-yil	127 970	61 363	48,0	66 608	52,0
3	2022-yil	148 501	71 022	47,8	77 479	52,2
4	2023-yil	165 918	76 262	46,0	89 656	54,0
5	2024-yil	199 449	85 786	43,0	113 663	57,0
6	2025-yil prognoz	223 919	99 037	44,2	124 882	55,8
	2024 yilga nisbatan o'sish %	112	115		110	
7	2025-yil	235 068	108 939	46,3	126 129	53,7
	2024-yil tushumga %	118,0	127,0		111,0	

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi samaradorligining oshib borishi budget daromadlari dinamikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2020-yil bazaviy yil sifatida olinganda, keyingi yillarda budget tushumlarida izchil o'sish kuzatilgan. Xususan, 2021-yilda jami tushumlar 127,97 trln so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 23,6 foizga oshgan. 2022-yilda o'sish sur'ati nisbatan sekinlashgan bo'lsa-da, 12,6 foiz darajasida saqlanib qolgan. 2023-2024-yillarda esa budget tushumlarining o'sish sur'atlari yana yuqori ko'rsatkichlarni qayd etib, mos ravishda 15,2 va 20,2 foizni tashkil etgan. Mazkur ijobiy dinamika soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarda shaffoflikni kuchaytirish, shuningdek, huquqiy va tashkiliy islohotlarning izchil amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi. 2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari ham ijobiy baholanib, budget tushumlari 223,015 trln so'm miqdorida rejalashtirilgan. Bu esa 2024-yilga nisbatan 11,8 foizlik o'sishni anglatadi. Shu bilan birga, yuqori ssenariy bo'yicha belgilangan nazorat raqami 235,068 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 18 foizlik o'sish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada oshirish uchun zarur institutsional va raqamli imkoniyatlar shakllanib borayotganini tasdiqlaydi.

Yillik tushumlar tarkibida birinchi va ikkinchi yarim yilliklar ulushi o'rtasidagi nisbat ham alohida e'tiborga molikdir. 2020-yilda jami tushumlarning 44,3 foizi birinchi yarim yillikda, 55,7 foizi esa ikkinchi yarim yillikda shakllangan. Keyingi yillarda ushbu nisbat bosqichma-bosqich barqarorlashib borgan. Jumladan, 2021-2022-yillarda birinchi yarim yillik ulushi 48 foiz atrofida bo'lgan. 2023-2024-yillarda esa tushumlarning asosiy qismi ikkinchi yarim yillikka to'g'ri kelgan bo'lib, bu soliq tushumlarida mavsumiylik omili saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat tadbirkorlik faolligining yilning ikkinchi yarmida nisbatan kuchayishi, yil yakunida hisob-kitoblarning faollashuvi hamda to'lov intizomining oshishi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, budget tushumlarini yil davomida yanada mutanosib taqsimlash soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi (2-jadval).

3 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-jadval

Soliq ma'murchiligining amaldagi holati natijadorligi yuzasidan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha 2020-2025-yillarda budjet daromadlariga tushumlar tahlili⁴ (mlrd.so'm)

№	Yillar	Jami	I yarim yillik		II yarim yillik	
			summa	ulush, %	summa	ulush, %
1	2022-yil tushum	88 929	43 937	49,4	44 992	50,6
2	2023-yil tushum	97 170	43 972	45,3	53 198	54,7
3	2024-yil tushum	120 450	49 370	41,0	71 081	59,0
4	2025-yil prognoz	133 460	57 479	43,1	75 982	56,9
	2024-yilga nisbatan o'sish %	111	116		107	
5	2025-yil nazorat raqami	140 050	64 773	46,3	75 277	53,8
	2024-yilga nisbatan o'sish %	116	131,2		105,9	

2-jadval ma'lumotlari soliq ma'murchiligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida davlat budjetiga tushumlar hajmi izchil ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat huquqiy, tashkiliy va raqamli bazalarni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amaliy samara berayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, yarim yilliklar kesimida tushumlar taqsimotidagi farqlar soliq tushumlarini yil davomida yanada barqaror va mutanosib shakllantirish bo'yicha qo'shimcha strategik choralarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Jadvalda 2022-2025-yillar davomida yirik soliq to'lovchilar hisobidan davlat budjetiga tushgan daromadlar tahlil qilingan. Mazkur ma'lumotlar ushbu toifadagi soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligi jarayonidagi o'rni va budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. 2022-yilda yirik soliq to'lovchilar tomonidan jami 88 929 mlrd so'mlik tushum ta'minlangan bo'lib, uning 49,4 foizi birinchi yarim yillikka, 50,6 foizi esa ikkinchi yarim yillikka to'g'ri kelgan. Bu davrda tushumlar taqsimoti nisbatan muvozanatli bo'lgan. 2023-yilda jami tushum 97 170 mlrd so'mga yetib, 2022-yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan. Ushbu yilda birinchi yarim yillikdagi tushumlar ulushi 45,3 foizni, ikkinchi yarim yillikdagi ulush esa 54,7 foizni tashkil etgan. Bu holat tushumlarning yilning ikkinchi yarmida faolroq shakllanganini ko'rsatadi. Bunday tendensiya yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi mavsumiylik, yil oxiridagi hisob-kitoblarning yakunlanishi hamda soliq intizomining kuchayishi bilan izohlanadi.

2024-yilda jami tushum 115 006 mlrd so'mni tashkil etishi kutilgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 18,4 foizlik o'sishni anglatadi. Birinchi yarim yillikdagi tushum 43 527 mlrd so'mni, ikkinchi yarim yillikdagi tushum esa 71 479 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar tushumlarning asosiy qismi ikkinchi yarim yillikka to'g'ri kelganini bildiradi. Xususan, yilning ikkinchi yarmidagi tushumlar ulushi 62,1 foizga yetgan. Mazkur holat soliq tushumlarini yil davomida yanada mutanosib taqsimlash bo'yicha boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichlarida jami tushum 133 460 mlrd so'm etib belgilangan. Bu 2024-yilga nisbatan 16 foizlik o'sishni bildiradi. Birinchi yarim yillik uchun tushum 57 479 mlrd so'm miqdorida rejalashtirilgan bo'lib, uning ulushi 43,1 foizni tashkil etadi. Bu esa tushumlarning asosiy qismi yilning ikkinchi yarmida shakllanishi ehtimoli saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 2025-yil uchun nazorat raqami 140 050 mlrd so'm miqdorida belgilangan. Ushbu ko'rsatkich bajarilgan taqdirda, 2024-yilga nisbatan 16 foizlik o'sish ta'minlanadi. Bu esa soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish hamda tushumlar taqsimotini bosqichma-bosqich barqarorlashtirish imkoniyatlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha amalga oshirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ular davlat budjeti tushumlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi va ularning fiskal ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, tushumlarning yarim yilliklar bo'yicha taqsimotida muayyan nomutanosiblik saqlanmoqda. Bu esa soliq ma'murchiligini yanada tizimlashtirish, soliq to'lovlari kalendarini oqilona tashkil etish hamda yilning birinchi yarmida budjet tushumlarini oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. So'nggi yillarda "E-Soliq" tizimi, elektron hisobotlar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish

4 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



mexanizmlarining joriy etilishi soliq tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, soliq qonunchiligini yanada barqarorlashtirish, axborot tizimlari integratsiyasini kuchaytirish hamda hududiy soliq organlarida kadrlar salohiyatini izchil oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelgusida soliq ma'murchiligini barqaror huquqiy baza, raqamli monitoring, risklarni baholash va komplaens-nazorat tizimlari asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy tajribani o'rganish natijalari soliq siyosati samaradorligini baholash bo'yicha ko'p komponentli mualliflik yondashuvini shakllantirish imkonini berdi. Mazkur yondashuv iqtisodiyotga soliq yukining real darajasini baholashda soliqqa tortilmaydigan yoki imtiyozli aylanmalar, soliq solish obyektlari, alohida soliq to'lovchilar guruhlari va tarmoqlar xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun budjet daromadlari tarkibida soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlarini kafolatli ta'minlash, soliq risklarini kamaytirish, resurs yondashuvi va maqsadli yondashuv asosida soliq siyosati sifatini oshirish muhim hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga izchil joriy etilishi O'zbekistonda soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish va soliq tizimining institutsional samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6773342>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-6785751>.
3. Jo'rayev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2005. - 48-b.
4. Аронов А. В., Кашин В. А. Налоги и налогообложение: учебное пособие. - М.: Магистр, 2007. - С. 99-100.
5. Камалнев Т. Ш. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва, 2009.
6. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям / под ред. И. А. Майбурова. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. - 655 с.
7. Юнак А. А. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. - Москва, 2009. - С. 12.
8. Дементева Н. М. Налоговая политика государства. - URL: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.
9. Карп М. В. Налоговый менеджмент: учебник для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. - 39 с.
10. Ситникова О. В. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва, 2012.
11. Даркина Ю. А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Interactive Science. - 2019. - № 3 (37).
12. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. - URL: www.soliq.uz.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100